



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVI
QARORI

2025 -y. “ 24 ” aprel _____

_____ 10/17 _____ -son

Toshkent sh.

**O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tasarrufidagi davlat unitar
korxonalarining tashkiliy huquqiy shaklini o‘zgartirish
va korxonalar ustavini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 7-fevraldagi O‘RQ-1025-son “Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslari yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga unitar korxona va qo‘shimcha mas‘uliyatli jamiyat shakllarini tugatishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan Markaziy bank o‘zining vakolatlarini amalga oshirish va vazifalarini bajarish maqsadida tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Respublika inkassatsiya xizmati” davlat unitar korxonasi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki “Axbortlashtirish bosh markazi” davlat unitar korxonasi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi “Garov reestri” davlat unitar korxonasi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Davlat belgisi” davlat unitar korxonasi faoliyat yuritib kelmoqda.

Yuqoridagi korxonalar Markaziy bank tomonidan operativ boshqarish uchun berilgan mulk negizida tashkil etilgan davlat unitar korxonasi shaklidagi tijorat tashkilotlari bo‘lib, o‘z-o‘zini mablag‘ bilan ta‘minlash asosida faoliyat yuritadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 7-fevraldagi O‘RQ-1025-son “Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslari yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash maqsadida, Markaziy bank boshqaruvi

QAROR QILADI:

1. Markaziy bank Yuridik departamenti direktori o‘rinbosari D.Nodirovning Markaziy bank tasarrufidagi davlat unitar korxonalari mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklida qayta tashkil etilishi va ularning ustavlari tasdiqlanishi to‘g‘risidagi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Markaziy bank tasarrufidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Respublika inkassatsiya xizmati" davlat unitar korxonasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki "Axbortlashtirish bosh markazi" davlat unitar korxonasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi "Garov reestri" davlat unitar korxonasi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Davlat belgisi" davlat unitar korxonasi Markaziy bank yagona muassisi bo'lgan "Respublika inkassatsiya xizmati" mas'uliyati cheklangan jamiyati, "Axbortlashtirish bosh markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyati, "Garov reestri" mas'uliyati cheklangan jamiyati va "Davlat belgisi" mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklida qayta tashkil etilsin.

3. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tasarrufidagi davlat unitar korxonalarning huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo'yicha huquqiy vorislari qaytadan tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlari hisoblansin.

4. "Respublika inkassatsiya xizmati" mas'uliyati cheklangan jamiyati, "Axbortlashtirish bosh markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyati, "Garov reestri" mas'uliyati cheklangan jamiyati va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Davlat belgisi" mas'uliyati cheklangan jamiyatining ustavlari 1-4-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

5. Moliya-iqtisod departamenti (I. Babayev) Yuridik departamenti bilan birgalikda (D. Nodirov) mazkur qaror nusxasini va jamiyatlarning mol-mulki va moliyaviy majburiyatlari xatlovi dalolatnomalarini tegishli buyruq qabul qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Toshkent shahar hududiy boshqarmasiga taqdim etilishini ta'minlasin.

6. Korxona rahbarlari (D.Qurbonboyev, N.Xamidov, Sh.Karaliyev, A.Xamidov) zimmasiga:


mas'uliyati cheklangan jamiyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish;

bajarilgan ishlar yuzasidan tegishli ma'lumotlarni Markaziy bankka taqdim qilish vazifalari yuklatilsin.

7. Yuridik departamenti (D.Nodirov) ushbu o'zgartirishlardan kelib chiqib, tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishini ta'minlasin.

8. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish raisning birinchi o'rinbosari N.Saydullayev, rais o'rinbosarlari A.Kamalov, S.Melibayev zimmalariga yuklatilsin.

Markaziy bank raisi



T.A.Ishmetov